

идеяларды жэмийетлик санаға, соның менен бирге, жасларымыздың санасына синдирийде миллий мийрасларымыз хэм миллий

қәдириятларымыздың әхмийети жоқары дәрежеде болып есапланады.

Пайдаланылған әдебиятлар

1. Шарипов А. Маънавият юлдузлари. Беруний. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999. – Б. 43.
2. Қиём Назаров. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). –Т.: 2004. –Б. 17.
3. Тураев Б.О., Каримов Б.Р. Оқилона қадрият мўлжаллари. –Тошкент, 1994. – Б. 116.
4. Отамуротов Саъдулла, Отамуротов Сарвар. Ўзбекистонда маънавий-рухий тикланиш. – Тошкент: УАЖБНГ Маркази, 2003.
5. Фалсафа асослари / Қ.Назаров таҳрири остида. – Тошкент: «Ўзбекистон» файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2018.

РЕЗЮМЕ. Бул мақалада миллий мийрасымыздың миллеттиң өз келешегин жаратыўда көнликпе хэм тәжирийбе дереги сыпатындағы өзгешелиги анализ қылынды. Соның менен бирге, аксиологиялық көз-карастан миллий қәдириятлар хэм улыўмаинсаныйлық қәдириятлардың мазмун хэм мәниси ашып берилди.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируется особенность национального наследия как источника навыков и опыта созидания собственного будущего нации. При этом с аксиологической точки зрения раскрываются содержание и сущность национальных ценностей и общечеловеческих ценностей.

SUMMARY. This article analyzes the unique nature of national heritage as a source of skills and experience for creating a nation's future. From an axiological perspective, it explores the content and essence of national and universal values.

KUTUBXONACHILIK: ZAMONAVIY AXBOROT JAMIYATIDA UNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Sharipova Dilbarxan Atajanovna – dotsenti

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so‘zlar: kutubxonachilik, axborot jamiyati, raqamlashtirish, elektron kutubxona, innovatsion texnologiya, kitobxonlik, ma’naviyat.

Ключевые слова: библиотековедение, информационное общество, цифровизация, электронная библиотека, инновационные технологии, культура чтения, духовность.

Key words: librarianship, information society, digitization, electronic library, innovative technology, reading culture, spirituality.

XXI asrda axborot oqimlari keskin ortib, insoniyat faoliyatining deyarli barcha jabhalari raqamlashtirilmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotida axborot resurslariga bo‘lgan talab sezilarli darajada ortdi. Shu jarayonda kutubxonachilik sohasi ham o‘zining yangi, zamonaviy vazifalarini topdi. Endilikda kutubxona faqatgina kitob saqlanadigan joy emas, balki jamiyatning intellektual, madaniy va ilmiy markazi sifatida xizmat qilmoqda. Bugungi kunda kutubxonalar innovatsion bilimlarni jamiyatga yetkazuvchi vosita sifatida qaralmoqda. Elektron kutubxonalar, raqamli kataloglar, onlayn ma’lumot bazalari foydalanuvchilarga qulay sharoit yaratmoqda. Shu bilan birga, kutubxona insonlarning mustaqil o‘qish, izlanish va ta’lim

olish madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Kutubxonalar yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish, milliy va jahon madaniy merosini saqlash, targ‘ib qilish, jamiyatda ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan, kutubxona milliy g‘oya va ma’naviy barkamollikni shakllantirishning asosiy institutlaridan biridir. Zamonaviy axborot jamiyatida kutubxonachilik sohasi yangicha mazmun kasb etmoqda. U nafaqat bilimlar xazinasini, balki raqamli axborot markazi, ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotning muhim tayanchi sifatida namoyon bo‘lmoqda. An’anaviy kutubxonachilikda asosiy e’tibor fondni shakllantirish, saqlash va o‘quvchilarga xizmat ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lsa, hozirgi zamon kutubxonachiligi foydalanuvchining ehtiyojiga

qarab ma'lumotni topish, tahlil qilish va taqdim etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi. Zamonaviy kutubxonachi nafaqat kitoblar bilan ishlaydi, balki elektron resurslar, ma'lumotlar bazalari, raqamli arxivlar bilan ham ishlay olishi zarur. U foydalanuvchining so'roviga javoban faqat manba emas, balki to'g'ri, ishonchli va dolzarb axborotni taqdim eta oladigan mutaxassisdir. Internet texnologiyalarining rivojlanishi raqamli kutubxonalar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu turdagi kutubxonalar geografik chegaralarni yo'q qilib, istalgan foydalanuvchiga axborotga tezkor kirish imkonini yaratdi.

Masalan, Milliy elektron kutubxonalar, HAYAT, Ziyonet portallari bunga misol bo'la oladi. Kutubxonalar foydalanuvchilarning axborot savodxonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Axborot savodxonligi, kerakli axborotni izlash, baholash, foydalanish va uzatish qobiliyatidir. Kutubxonachilar bu borada foydalanuvchilarga seminarlar, treninglar va konsultatsiyalar o'tkazadilar.

Kutubxonachilik jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Yangi texnologiyalar kirib kelishi bilan bu soha ham zamonaviylashib, o'z xizmatlarini takomillashtirmoqda. Kutubxona, faqat o'tmish emas, balki kelajak uchun ham muhim manbadir. Kutubxonalar insoniyat tarixida bilimlar saqlanuvchi va avloddan-avlodga o'tuvchi asosiy manba sifatida muhim o'rin tutib kelgan. Ular faqatgina kitoblar saqlanadigan joy emas, balki ilm-fan, ma'naviyat va madaniyat markazi bo'lib xizmat qilgan. Bugungi globallashtirish va raqamli texnologiyalar davrida esa kutubxonachilik sohasi o'z funksiyalarini kengaytirmoqda, an'anaviy xizmatlar bilan bir qatorda, axborot texnologiyalariga asoslangan zamonaviy xizmat turlarini ham taklif qilmoqda. An'anaviy kutubxonachilik faoliyatida quyidagi asosiy funksiyalar mavjud bo'lgan: fondni shakllantirish va saqlash, kitoblar va bosma manbalarni yig'ish, tasniflash, kataloglashtirish va saqlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, foydalanuvchilarga adabiyotlar bilan ishlashda yordam berish, ularni kutubxonada mavjud manbalar bilan tanishtirish en muhim jihat

hisoblanadi. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, kitobxonlar bilan uchrashuvlar, kitobxonlik kechalari, ma'rifiy suhbatlar tashkil etish muhim. [1.45-49] An'anaviy kutubxonachilikda asosiy e'tibor kitob fondini saqlash va undan foydalanishni tashkil qilishga qaratilgan bo'lsada, bu tizim zamonaviy axborot ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Zamonaviy kutubxonalar nafaqat bosma adabiyotlarni, balki elektron, raqamli va onlayn axborot manbalarini ham foydalanuvchilarga taqdim etadi. Axborot savodxonligini oshirish, foydalanuvchilarga axborotni topish, tanlash va undan samarali foydalanish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantiradi [2. 34-38]. Quyidagi funksiyalar zamonaviy kutubxonachilikning ajralmas qismiga aylangan: elektron resurslar bilan ishlash, elektron kutubxonalar, ma'lumotlar bazalari, raqamli arxivlar.

Axborot xizmatlari, foydalanuvchilarning axborot so'rovlariga javoban tahlil qilingan, ishonchli va aniq ma'lumotlar taqdim etadi. Onlayn xizmatlar, elektron kataloglar, masofaviy xizmatlar, virtual maslahatlar. Zamonaviy kutubxonachi endi faqat adabiyotlar bilan ishlovchi emas, balki axborot vositachisi, foydalanuvchi va global axborot tarmog'i o'rtasida ko'priq vazifasini bajaradi [3. 12-17].

Xulosa qilib aytganda, kutubxonachilik sohasi zamon bilan hamnafas tarzda rivojlanmoqda. An'anaviy funksiyalar saqlangan holda, zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yangi xizmatlar joriy etilmoqda. Bu esa kutubxonani nafaqat bilim markazi, balki innovatsion axborot platformasiga aylantirishga xizmat qiladi. Kelajak kutubxonalari esa, shubhasiz, global axborot muhitining ajralmas qismi sifatida yanada rivojlanib boradi. Zamonaviy axborot jamiyatida kutubxonachilik sohasi yangicha mazmun kasb etmoqda. U nafaqat bilimlar xazinasi, balki raqamli axborot markazi, ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotning muhim tayanchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shunday ekan, kelajakda kutubxonalarni modernizatsiya qilish, elektron resurslarni kengaytirish va axborot xizmatlarini takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova Z. (2019). Kutubxona faoliyatining an'anaviy yo'nalishlari. // Ma'naviyat va ma'rifat jurnali, №3, 45-49-betlar.
2. Rasulova G. (2021). Axborot savodxonligi va kutubxonachilik. // Axborot texnologiyalari va kutubxonalar, №2, 34-38-betlar.
3. Yusupova D. (2022). Zamonaviy kutubxonachining roli va vazifalari. // Ilmiy-amaliy axborot, №1, 12-17-betlar.

REZYUME. Ushbu maqolada zamonaviy axborot jamiyatida kutubxonachilikning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Kutubxonalarning an’anaviy vazifalari hamda raqamli texnologiyalar sharoitida ularning yangi yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Xususan, elektron kataloglar, virtual kutubxona xizmatlari, masofaviy foydalanuvchi bilan ishlash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, kutubxonaning ijtimoiy-madaniy vazifalari, yoshlarni kitobxonlikka jalb etishdagi roli hamda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

PEZIOME. This article analyzes the role and importance of librarianship in the modern information society. It examines the traditional functions of libraries as well as their new directions in the digital era. In particular, electronic catalogs, virtual library services, and opportunities for remote user interaction are highlighted. The article also discusses the socio-cultural functions of libraries, their role in promoting reading among youth, and their importance in shaping spiritual values.

SUMMARY. В данной статье анализируются роль и значение библиотековедения в современном информационном обществе. Рассматриваются традиционные функции библиотек, а также их новые направления в условиях цифровых технологий. В частности, освещаются электронные каталоги, виртуальные библиотечные сервисы и возможности дистанционного обслуживания пользователей. Также раскрывается социально-культурная функция библиотек, их роль в привлечении молодежи к чтению и значимость в формировании духовных ценностей.